

Jizzax viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar-fevral oylari uchun

- I. Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni
- II. Jizzax viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


I. Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-mart holatiga ko'ra, viloyatida 61,8 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida korxonalarining katta qismi quyidagilarga:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – 519 ta (23,4 %);
- boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 405 ta (18,3 %);
- kiyim ishlab chiqarish – 255 ta (11,5 %);
- tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – 27 ta (1,2 %);
- mebel ishlab chiqarish – 179 ta (8,1 %);
- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 114 ta (5,1 %);
- rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – 91 ta (4,1 %) to'g'ri keldi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalari ulushi

2026-yil 1-mart holatiga ko'ra



II. O'zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalarini tomonidan **5 198,4** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda **5,3** foizga oshgan.

| | Hajmi, mlrd so'm | Fizik hajm indeksi, % da |
|------------------------|---------------------|-----------------------------|
| Jizzax viloyati | 5 198,4 | 105,3 |
| Jizzax sh. | 1 406,4 | 106,2 |
| <i>hududlar:</i> | | |
| | 29,5 | 82,4 |
| Arnasoy | 27,6 | 127,3 |
| Baxmal | 2 128,7 | 106,7 |
| G'allaorol | 146,0 | 103,3 |
| Sharof Rashidov | 196,0 | 110,3 |
| Do'stlik | 153,4 | 104,6 |
| Zomin | 28,2 | 106,6 |
| Zarbdor | 173,7 | 118,5 |
| Zafarobod | 66,9 | 110,8 |
| Mirzacho'l | 299,3 | 103,4 |
| Paxtakor | 189,6 | 119,2 |
| Forish | 7,5 | 74,2 |
| Yangiobod | 29,5 | 82,4 |
| Arnasoy | 27,6 | 127,3 |

**) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(yillik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(yillik\)](#)


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tahlil qilinganda G'allaorol tumanida (**11 063,0** ming so'm), Jizzax shahrida (**6 974,3** ming so'm), Do'stlik (**2 745,3** ming so'm) va Paxtakor tumanlarida (**3 602,6** ming so'm) viloyat o'rtacha ko'rsatkichi (**3 349,0** ming so'm) dan yuqori natijalar qayd etilgan.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **103,3** % ni tashkil etgan bo'lsa, Zafarobod **116,7** %, Baxmal - **124,6** %, Forish– **117,6** % va Do'stlik tumanlarida **108,8** % qayd etilib, viloyat ko'rsatkichidan yuqori natija qayd etildi.

¹⁾viloyatda yangi ishga tushirilgan davlat xususiy sherikchilik asosida faoliyat yuritayotgan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar hajmi qamrovini takomillashtirishni hisobga olgan holda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-fevral oylarida



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(yillik\)](#)

[Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(oylik\)](#)

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **4 998,7** mlrd so'mni, fizik hajm indeksi **105,0** foizni tashkil etgan bo'lsa, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda **31,0** mlrd so'm (**65,1** %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **144,3** mlrd so'm (**158,4** %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda **24,4** mlrd so'm (**87,9** %) ni tashkil etdi.

Seksiyalar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi
2026-yilning yanvar-fevral oylarida



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibi 4 ta B, C, D, E seksiyadan iborat:

B - tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;

C - ishlab chiqarish sanoati;

D - elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash;

E - suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishdan tashkil topgan.



III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yil yanvar-fevral oylarida viloyatda quyidagi mahsulotlar ishlab chiqarildi: margarin – 2150,2 tonna, yangi so‘yilga sovutilgan gust – 67,0 mln t, porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun qo‘rg‘oshinli akkumulyatorlar – 65,4 ming d, port-landsement – 495 530 tonna, paxtadan yigirilgan ip – 5240,7 tonna, yumshoq bug‘doy va spelta uni – 2285,0 tonna.

| Sanoat mahsulotlari | 2024-yil yanvar-fevral ¹⁾ | 2025-yil yanvar-fevral ¹⁾ | 2026-yil yanvar-fevral |
|--|--------------------------------------|--------------------------------------|------------------------|
| <i>Yumshoq bug‘doy va spelta uni - tonna</i> | 2 659,8 | 626,9 | 2 285,0 |
| <i>Yangi so‘yilga sovutilgan gust - tonna</i> | - | 223,9 | 67,0 |
| <i>Margarin-tonna</i> | - | 1 903,3 | 2 150,2 |
| <i>Paxtadan yigirilgan ip - tonna</i> | 5 145,9 | 5 773,6 | 5 240,7 |
| <i>Mashinada yoki qo‘lda to‘qilgan trikotaj polotnolar - tonna</i> | 110,5 | 155,0 | 1 124,5 |
| <i>Paxta tolasi - tonna</i> | 6 356,0 | 3 736,5 | 4 922,0 |
| <i>Kaliy sulfat- ming tonna K2O</i> | - | 0,2 | 2,1 |
| <i>Porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun qo‘rg‘oshinli akkumulyatorlar - ming dona</i> | 85,1 | 51,1 | 65,4 |
| <i>Portlandsement, tonna</i> | 266 956,8 | 232 454,0 | 495 530,0 |

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:


[Ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – **10,5 %**, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi – **14,9 %**, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar, elektr uskunalari, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish va mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatishning ulushi – **58,7 %** hamda kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – **1,9** foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi **0,1** foizni, o'rta-yuqori texnologiyali – **59,3 %**, o'rta-quyi texnologiyali – **13,3 %**, quyi texnologiyali – **27,3** foizni tashkil etgan.



Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan avtomobillar soni yanvar-fevral oylarida, donada

| Sanoat mahsulotlari | 2025-yil ¹⁾ | 2026-yil |
|-----------------------------------|------------------------|----------|
| <i>Maxsus yengil avtomobillar</i> | 8 523 | 10 899 |
| “KIA” | 4 102 | 4 039 |
| “Chery” | 1 392 | 1 290 |
| “Haval” | 1 117 | 2 405 |
| “BYD” | 1 912 | 3 165 |

¹⁾ 2025-yilning yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasi

2026-yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish **158,4** foizni tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2024-yil yanvar-fevral ¹⁾ | 2025-yil yanvar-fevral ¹⁾ | 2026-yil yanvar-fevral |
|---|--------------------------------------|--------------------------------------|------------------------|
| Elektr, gaz, bug' va havoni konditsiyalash , mln so'm | 62 625,9 | 77 516,7 | 144 284,6 |
| <i>shundan:</i> | | | |
| <i>Elektr energiyasi, bug' ta'minoti tizimlari va konditsionerlarni ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash</i> | 39 610, 1 | 53 725,5 | 119 256,3 |
| <i>gazsimon yoqilg'ilarni ishlab chiqarish va tarqatish</i> | 23 015, 8 | 23 791, 2 | 25 028 ,3 |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasi (yirik korxonalar tomonidan)

O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilarida **0,4** foizga kamayish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda **28,8** foizga ko'payish kuzatildi.

| Sanoat mahsulotlari | 2024-yil yanvar-fevral ¹⁾ | 2025-yil yanvar-fevral ¹⁾ | 2026-yil yanvar-fevral |
|---|--------------------------------------|--------------------------------------|------------------------|
| Suv ta'minoti; kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va yo'q qilish | 10 595,4 | 24 074,8 | 144 284,6 |
| <i>suv yig'ish, tozalash va tarqatish mln so'm</i> | 8 622,3 | 17 727,0 | 119 256,3 |
| <i>chiqindilarni yig'ish, qayta ishlash, olib tashlash va yo'q qilish, mln so'm</i> | 1 973,0 | 6 347,8 | 25 028,3 |

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan



IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi.

Foydali havolalar

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/855-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/865-sanoat-ishlab-chiqarishining-fizik-hajm-indeksini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
S. Sultonova
+998 72 221-51-13 (2510)

Manzil:

